

MADANIY TADBIRLARNING BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDAGI O‘RNI

Sultonova Sevara Farhod qizi

Namangan Davlat universiteti talabasi

mirzayevadilafruz645@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada tadbirlarning turlari, ularning qay tartibda tashkil etilishi va ularning yosh avlod tarbiyasida tutgan roli haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Ssenariy, g‘oya, debat, shou, bayram, metod, mezasena, repertuar tanlash, inssenirovka, “ommaviy madaniyat”.*

Madaniy tadbirlar bu ma’lum ssenariy asosida o‘tkaziladigan barcha tadbirlar majmuidir. Madaniy tadbirlar eng avvalo, milliy g‘oya asosida xalqni jipslashtirish, yosh avlod ongida va qalbida ezgu g‘oyalarni uyg‘otish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, insonlarni ma’naviy tajovuzlardan ogohlikga chorlash maqsadida tashkil etilgan tizimli shakllar, usullar, vositalar, maqsadli amaliy harakatlardir. Turli janrlardagi konsertlar (ommaviy bayramlarda yoxud aholining madaniy hordiq olishlar uchun tashkil etiladi) davra suhbatlari, uchrashuvlar, mavzuli kechalar, viktorina, ya’ni ko‘rik-tanlovlar, debat, badiiy sport tomoshalari, shoular, bayramlar madaniy tadbirlar turlaridir. Madaniy tadbirlarning eng ko‘p uchraydigan turi davra suhbatlaridir. Davra suhbatlari ma’lum mavzu bo‘yicha, kichik auditoriyalarda rasmiy bo‘lmagan holatda tashkil etiladi. Buning uchun uncha ko‘p tayyorgarlik ko‘rilmaydi chunki, bunday tadbirda bir yoki ikki kishi tomonidan ma’lumot beriladi hamda mavzu bo‘yicha fikr almashinib savol-javob tarzida o‘tkaziladi, soha bo‘yicha mutaxassis tomonidan ma’ruza qilinib, auditoriya ishtirokchilari tomonidan o‘zini qiziqtirgan savollarga javob beriladi, takliflar va mulohazalar o‘rtaga tashlanadi. Uning g‘oyasi biron dolzarb

mavzu yuzasidan aholi va yoshlarni ogohlikga chorlash hamda unga birgalikda chora ko'rishdan iboratdir.

Madaniy tadbirlarning juda ko'p qo'llaniladigan turlaridan biri – konsert va spektakllarni tashkil etishdir.

Mavzuli va teatrlashtirilgan konsertlarda ssenariy to'liq yozilishi kerak. Mavzuli kechalarda mamlakatimizning kundalik hayoti aks etgan voqea-hodisalarga bag'ishlab o'tkaziladi.

Viktorinalar- bilimlarning turli sohasiga oid savollarning og'zaki yoki yozma ravishda berilishi o'yin asosiga qurilgan tadbirdir. U G'oliblarni aniqlash, rag'batlantirish, yurish ketma-ketligi, savollarning oson, murakkabligi asosida boradi.

Ko'rik-tanlovlar ham madaniy tadbirlarning eng qiziqarli turlaridan hisoblanadi. Ko'rik-tanlovlar asosan, musobaqa tarzida tashkil etiladi. Nafaqat san'at, barcha yo'nalishlarda bellashuv, tortishuv, bahs-munozaralarda ko'rinishida bo'ladi. Lekin eng ko'p sport tomoshalarida namoyon bo'ladi. Yugurish bo'yicha tashkil etilgan marafonlar, akrobatika, suzish musobaqalari shular jumlasidandir.

Tadbirlarning yana bir turlaridan biri - debatlaridir. Debatlar - ikki tomonning dolzarb mavzular bo'yicha oshkora fikr almashishidir. Uning davra suhbatidan farqi shundaki, davra suhbatida bir yoki ikki ma'ruzachi mavzu bo'yicha fikr yuritib, xulosa chiqarishni tomashabinning o'ziga tashlab qo'yadi debatda esa ikki tomon fikr yuritib uchinchi tomonga isbotlab berishi kerak bo'ladi. Masalan, ikkita guruh bo'lsa, ular o'rtasidagi bahs munozarani boshlovchi boshqarib turishi mumkin. Debatlar ko'proq ilmiy tus olsagina, samaraliroq bo'ladi. Sababi, debatlarida aniq savolga aniq javob talab etiladi. Uni tashkil etish uchun joy tanlanmaydi.

Badiiy sport tadbirlarini tashkil etish bo'yicha bir qancha tadbirlarni sanab o'tish mumkin. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, hech qaysi davlatimizni sportchalik dunyoga mashhur qilolmaydi. Ularni tashkil etishdan asosiy maqsad aholini sog'lom turmush tarziga targ'ib qilishdab iborat. Badiiy sport tomoshalarini tashkil etishda mukammal ssenariy yozish talab etiladi. Ularni musobaqa tarzida tashkil etish mumkin.

Shoular - ko'ngil ochar xarakterga ega bo'lib, maxsus ssenariylar bo'yicha kuy, qo'shiq, raqslar, turli o'yinlar asnosida o'tkaziladi.

Bayram uchun tashkil etilgan tadbirlar - teatrlashgan namoyishlar, tomoshalar, konsertlar, ko'rik-tanlovlar, bellashuvlar, rang-barang ommaviy tadbirlar birligidir. Masalan, yangi yil bayrami uchun tuzilgan tadbirda teatrlashgan namoyish, konsertlar ko'rinishida bo'ladi.

Har qanday tadbirlarni tashkil etishda metodlardan to'g'ri foydalanish juda muhim. Tadbirlarning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun tashkil etish usulini aniqlab olish va uni maqsadli qo'llash kerak. Metod so'zi yunoncha, metodos - tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot voqelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish to'plamidir. Zamonaviy ma'nosi ma'lum faoliyatda maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan usul - degan ma'noni anglatadi. Ma'lumki, biron-bir tadbir uchun biz bir nechta metodlardan foydalanamiz, chunki, tadbirlar ko'p qirrali bo'lgani uchun ko'proq metodlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Madaniy tadbirlar - tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, pedagogikadagi tarbiyaviy ishlarga oid bo'lgan, ma'rifiy, bilim berish va axborot tarqatish metodlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ularda madaniy hordiq olish va ijodiy jarayonlarni tashkil etish metodlaridan foydalanilmasa, tadbirlarning asosiy vazifasi yo'qoladi.

Ishontirish metodi – Madaniy tadbirlarni tashkil etishda tomoshabinlarni voqelikga ishontirish lozim. Chunki, tomoshabin tashkilotchilar fikriga qo'shilmasa, tadbirning maqsadi amalga oshmaydi. Shuning uchun tadbirda hujjatlar, faktlar, statistik ma'lumotlarga tayanish kerak.

Namuna metodi – Kishilarning eng yaxshi fazilatlarini tarannum etadi. Masalan: 14-yanvar Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda namuna metodidan foydalanish orqali, o'sib kelayotgan yosh avlodda Vatan himoyachilariga nisbatan havas tuyg'usini uyg'otib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ma'rifiy metodlar – tadbirlarning asosini tashkil qiladi. Uning asosiy vazifasi yangi axborot va bilim berishdan iborat. Uning keng qo'llaniladigan turi bayon qilish

va namoyish etishdir. Bayon etish metodida auditoriga ma'lumotlar jonli axborot tarzida yetkazib beriladi. Namoyish qilish metdoidda esa, tadbirdagi obrazlarni ko'rgazmalar yordamida ochib berishga yordam beradi.

Tadbirlar repititsiyalar asosida tashkil qilinadi va bu jarayonda mashq qilish metodidan foydalaniladi. Uning boshqa metodlardan farqi u tayyorlanish jarayonida qo'llaniladi. Bunda ishtirokchilar o'rganganlarini amalda qo'llab, mahoratlarini oshiradilar.

Eng samarali metodlardan biri ommani tadbir qatnashchisiga aylantirish metodi hisoblanadi. Auditoriya ichida ashulalar aytish, ommaviy raqs, umumiy qarorlar qabul qilish, turli xil o'yinlardan foydalanish tomoshabinlarni tadbir qatnashchisiga aylantirib yuboradi. Bu metod tadbirni qiziqarli, samarali qilish bilan bir qatorda, auditoriyani faollashtirishga ko'maklashadi.

Illyustratsiyalash metodi – Hozirgi kunda ko'p foydalaniladigan metodlardan biri. Illyustratsiyalash bu badiiy va san'at vositalaridan foydalanishdir. Masalan: Boshlovchilar matni, boshqaruvchilar fikri.

Illyustratsiya vositalariga musiqa, qo'shiq, raqs, she'r, monolog, kinokadrlar kabi vositalar kiradi.

Teatrlashtirish metodi – kishilar taqdirini badiiy obrazlar yordamida ko'rsatish. Tadbirlarni g'oyaviy jihatdan yoritib beradi. Teatrlashtirish metodi shaxsiy-madaniy qimmatini baland, kompleks shakllarda foydalaniladi.

Tadbirlarni tashkil etishda yana mos repertuar tanlash kerak. Teatrda qo'yiladigan spektakllar va yakka ijro etiladigan asarlar jamiga repertuar deyiladi. Repertuar tanlash ijro uchun munosib asarni izlab topish deganidir. Puxta yozilgan asar har qanday holatda ham o'z badiiy qiymatini saqlab qoladi. Ammo, ijro etishda va sahnalashtirishda kamchiliklarga yo'l qo'yilsa, yaxshi yozilgan asar ham o'z qiymatini yo'qotadi. Repertuar tanlanganda jarayon muntazam davom etishi va izchilikga rioya qilinishi shart.

Hamma o'tkaziladigan tadbirlar uchun manba topish oson bo'lmaydi. Shuning uchun bunday paytlarda tayyor pyessalar bilan cheklanib qolmasdan, dramatik bo'lmagan asarlarni sahna qo'yish uchun inssenirovkadan foydalanish kerak.

Inssenirovka – biror asarni sahnaga qo‘yish uchun moslashtirish, sahnaviy qilib o‘zgartirish degan ma’nolarni anglatadi. Inssenirovka bu badiiy asarni dramatik asarga aylantirishdir. Inssenirovka qilish uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Asar to‘liq o‘qib chiqilib, uning mazmun, mohiyati o‘rganiladi;
2. Asardagi muallif tomonidan berilgan so‘z, ta’riflar, ifodalash – qahramonlarga bo‘lib beriladi;
3. Asardagi qahramonlar aniqlanadi, ularga so‘zlar bo‘lib beriladi.
4. Monolog va dialoglarga ajratiladi;
5. Sahnalashtirishning barcha qonuniyatlariga tayanadi;
6. Asarni qisqartirish yoki kengaytirish mumkin bo‘ladi;

Mizanssena – Spektaklning alohida momentlarida, aktyorlarning sahnada joylashishi – deyiladi. Bu ishtirokchilarning sahnada bir-biriga xalaqit bermagan holda, chiroyli harakatlanishini ta’minlaydi. Mizanssena ishtirokchilar o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi hamda, bir voqeadan ikkinchi voqeaga o‘tish jarayoni tartib bilan belgilab, dinamik rivojini aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, madaniy tadbirlarni tashkil etish jarayonida yaxshi metod, vositalardan foydalanish uning ta’sir kuchini, saviyasini va sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirda qurilayotgan zamonaviy O‘zbekistonda tadbirlarning samarasini oshirish orqali dolzarb muammolardan hisoblangan ommaviy madaniyatga qarshi qurol sifatida foydalanish mumkin. Chunki, milliy qadryatlarga hurmat, vatanga sadoqat, ilm-fanga muhabbat bilan yosh avlodda mafkuraviy imunitet hosil qilish uchun tadbirlar bizni ongosti hujumlardan saqlanishga targ‘ib qiladi. Shu sababdan tadbirlarning sifatini oshirishga katta e’tibor qaratish soha xodimlariga ulkan ma’suliyat yuklaydi. Madaniy tadbirlarning bugungi kundagi rolini oshirish orqali biz, yot g‘oyalarga qarshi kurashga otlangan bo‘lamiz. Va bu yo‘lda muvaffaqiyatlarga erishish kelgusida yurtimiz porloq kelajagi, istiqbolini ta’minlaydi. O‘sib kelayotgan yosh avlod shu kabi tadbirlardan ma’nan oziqlansa, albatta, ular shu ruhda tarbiyalanadi va ularda g‘arb madaniyatiga havas tuyg‘usi uyg‘onmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.S. Sayfullayev, V.K. Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent – 2016.
2. J. Mamatqosimov. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. Toshkent – 2009.
3. V. Rustamov. Ssenariynavislik mahorati. Toshkent – 2017.